

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar – martida Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 2 214,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,5 % ga o'sdi. YaHM deflyatori indeksi 2018 yilning yanvar – martdagi narxlarga nisbatan 119,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 634,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga oshdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-mart)

	Mlrd.so'm		2018 yilga nisbatan, % da
	2018 y.	2019 y.	
I. YaHM	1 785,0	2 214,9	103,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 720,3	2 086,9	103,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	64,7	128,0	105,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 720,3	2 086,9	103,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	739,5	815,2	101,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	351,9	463,7	104,5
Sanoat	218,4	294,1	98,3
Qurilish	133,5	169,6	114,7
Xizmatlar	628,9	808,0	105,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	157,8	190,4	107,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	113,9	121,0	100,4
Boshqa xizmat tarmoqlari	357,2	496,6	105,5

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 101,3 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,1 %), qurilish – 114,7 %, (8,1 %), xizmatlar – 105,2 %, (38,7 %).

Sanoat tarmog'ida esa, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga kamayish kuzatildi.

2019 yil yanvar - mart uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) xajmi umumiy YaHMning 94,2 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa, 5,8 % ini tashkil etdi.

Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,9 % punktga kamaydi va hisobot yilida 39,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,7 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 22,2 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2,2 % punktga ko'paydi va hi sobot yilida 38,7 % ni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

2018 yil yanvar - mart




2019 yil yanvar-mart



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 9,1 % ni (2018 yil yanvar – martda 9,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,8 % ni (6,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,8 % ni (20,7 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: G'.Mamadiyev
Telefon: (0371) 230-83-42